

PROFESSIONGRAMMA





**Professiogramma
haqida tushuncha**



**Professiogrammaning
ahamiyati**



O'qituvchi professiogrammasi




**O'qituvchi Professiogrammasida
muhim xislatlar**



01


**Professiogramma
haqida tushuncha**




PROFESSIOGRAMMA



Professiogramma-ma'lum tizimga keltirilgan, mehnatni psixologik tomondan o'rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko'rsatib berilgan hujjat.




Professiogramma-kasblar yoki mutaxassisliklar to'g'risidagi tushunchalar bir tizimga solingan, mehnatning pedagogik-psixologik tomonlarini ochib beradigan, tartiblangan va o'zaro uzviy bog'langan, umumiy vazifani bajarish uchun zarur bo'ladigan shaxsiy, umuminsoniy va kasbiy sifatlarni o'zida mujassam etgan, o'quvchining kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishiga qaratilgan qisqa va asosli taibiar majmuasi hamdir.



Professiogramma - bu o'qituvchi faoliyati va shaxsining modeli bo'lib, uning asosiy funktsiyalari, nazariy bilimlari doirasi, pedagogik mahorat ro'yxati, integral kasbiy va shaxsiy fazilatlarini aks ettiradi. Binobarin, kasbiy dastur universitetda o'qitish va ta'lim jarayonida va mustaqil o'qituvchilik faoliyatida erishilishi kerak bo'lgan natijani modellashtiradi.




Professionogrammadan kasbiy faoliyatga tayyorlikni diagnostika qilish vositasi sifatida foydalanish mumkin. Bu bizga o'quvchining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini va malakalarini haqida professional profilda taqdim etilgan o'qituvchining ideal qiyofasiga mos keladigan narsalar haqida gapirishga imkon beradi.



O'qituvchining professiogramatik tuzilish.V. A. Kruteskiy tomonidan 4ta blokka bolingan.



1. Insonparvarlik dunyoqarashi - yuksak axloqiy fazilatlarga ega va umumiy madaniyati yuqori bo'lgan shaxs ta'lim jarayonini tashkil etishga qodir, bolalarni sevadi, bolalik davrining to'liq qadr-qimmatini anglaydi, degan e'tiqod va ideallarga ega bo'lishi.




2.O'z pedagogik faoliyatiga ijobiy munosabat - shaxsning pedagogik yo'nalishini, pedagogikaga moyilligining mavjudligini, o'z hayotini va o'zini o'qituvchilik kasbiga bag'ishlashga barqaror intilish va xohishning mavjudligini nazarda tutadi. O'z kasbiga, befarq, o'z kasbini yoqtirmaydiga o'qituvchilarni o'quvchilar ham osongina aniqlay olishadi.




•3.Pedagogik qobiliyat -o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan maxsus tashkil etilgan shartlar .ya'ni pedagogik qobiliyatlar o'qituvchi bolalar bilan ishlashda amalga oshiradigan ma'lum kasbiy va pedagogik faoliyat va bolalar bilan ishlash.



4.Kasbiy va pedagogik bilimlar, ko'nikmalar-bu ma'lum bir fan sohasidagi bilim va texnologiyalarni o'quvchilarga yetkazib berish.



O'QITUVCHI SHAXSINING USTUVOR FAZILATLARI




O‘z kasbini samarali boshqarishda rivojlanishga oid “AIDA” qonuni ta’sir etishi



Agarda inson o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olsa, u to‘g‘ri yo‘l topa oladi.


Uning doim o‘ziga ishonchi bo‘ladi va kasbiy faoliyatda ham, shaxsiy hayotda ham omadli bo‘ladi.





02

**Professiogrammaning
ahamiyati**




Professiogramma:

oliy ta'lim o'qituvchisi vazifalari; oliy ta'lim o'qituvchisi faoliyatining mazmun-mohiyati; o'quv ishlari; o'quv-metodik ishlar; o'qituvchining ilmiy-tadqiqot ishlari; o'qituvchining tarbiyaviy ishlari; tashkiliy-metodik ishlar; o'qituvchi shaxsiy tavsifi va o'ziga xosligi; o'qituvchining maxsus tayyorgarligi; maxsus bilimlar; maxsus bilish, ko'nikma; O'qituvchining psixologik-pedagogik tayyorgarligi; psixologik pedagogik bilimlar; pedagogik bilimlar: diagnostika, prognostik, loyihalash, konstruktivlik, kommunikativlik, tashkilotchilik, tahlil qilish kabilarni qamrab oladi.




03

**O‘qituvchi
professiogrammasi**




O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilish va shu asosida o'quv - tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan xarakteristikasini nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi. Jumladan, maktabning o'qituvchi - murabbiysi professiogrammasini misol qilib keltiramiz. Professiogrammada muhim xislatlaridan borgan sari birmuncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining qo'yidagi xislatlari ko'rsatib berishi lozim.

O'qituvchining shaxsiy xislatlari:




- * O'Z BILIMINI OSHIRISHGA INTILISH
- * UDDABRONLIK
- * KUCHLI XARAKTERGA EGA BO'LISH
- * KAMTARLIK
- * ODAMIYLIK




- * DILKASHLIK
- * MEHRIBONLIK
- * JAMOAT ISHLARIDA FAOLLIK
- * MEHNATSEVARLIK
- * FAROSATLILIK
- * BOLALARNI SEVISH

O‘z kasbiga xos xislatlari:



- Milliy mafkura va mustaqii davlat mafkurasini tushunishi;
- zamonaviy maktab olib boriladigan o‘quv- tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar, milliy an’analar va urf- odatlarning ahamiyatini tushunishi;
 - O‘qituvchining kuzatuvchanligi;
 - o‘z diqqat - e’tiborini taqsimlay olishi;
 - pedagogik fantaziya (xayol) ning rivojlanishi;
- o‘ziga tanqidiy munosabatda bolishi; o‘zini tuta olishi;
 - nutqning emotsional ifodalanishi.



Bolalar jamoasini
uyushtira bilish ■




Turli sharoitlarda bolalarni
boshqara bilish



Bolalarni qiziqtirib ularni
faollashtira bilish



Amaliy masalalarni ustalik
bilan hal eta olishi



Professigramma o'qituvchining sakkizta asosiy funksiyasini o'z ichiga oladi.



3. Yo'naltiruvchi funksiyasi- o'quvchilarga to'g'ri axloqiy qadriyatlarni tanlashda yordam berish.

2. Rivojlanish funksiyasi- o'quvchilarda tasavvur, fikrlash, nutq, turli ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan ya'ni to'liq o'quvchilarni shaxsiy rivojlanishi.

1. Axborot funksiyasi - o'quvchilarga ma'lum bir o'quv dasturini sifatli translatsiya qolishni ta'minlaydi.

4. Safarbarlik funksiyasi- kasbiy faoliyatni amalga oshirishda mavjud bilim va ko'nikmalarni safarbar etish.

5. Dizayn funksiyasi- o'quvchilar bilan darsdan tashqarida turli mashg'ulotlar, mustaqil ishlarni tashkil qilish.

6. Kommunikativ funksiyasi- o'quvchilar va ularning ota-onalari, ta'lim muassasasi ma'muruyati va boshqalar bilan samarali aloqani amalga oshirish.

7. Tashkiliy funksiyasi- ma'lum bir faoliyat doirasida o'quvchilar va ularning ota onali bilan birgalikda darsni darsdan tashqari mashg'ulotlarni, sayohatlar, ekskursiya va hokozalarni tashkil qilish

8. Tadqiqot funksiyasi - o'quvchilarning muayyan fazilat va qobiliyatlarini aniqlash.






04

**O'qituvchi Professiogrammasida
muhim xislatlar**

Gnostik malakalari:



01



bolalarning asab - psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi;

02



o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi;

03



boshqa o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to'g'ri xulosa chiqara olishi;

04




psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi;

05



o'quvchilarni to'g'ri tushunib, ularning xulq - atvor sabablarini tushuntirishni bilishi;

Ijodiy xislatlari:



o‘zining pedagogik ta’siri natijalarini oldindan ko‘rish o‘quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati;

Pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilishi;



Empatik qobiliyati-o‘zini o‘quvchi o‘rniga qo‘ya olishi.

**E'TIBORINGIZ
UCHUN
RAHMAT**